

**OAV UCHUN KONTAKT MA'LUMOTLARI:**

Christa Hyson, MPH  
Senior Manager, External Relations  
(513) 247-5254

**DARHOL CHIQRISH UCHUN**

**COVID-19 Tekshirish va izolyatsiyalash uchun yangilangan yo'riqnoma  
Ogayo sog'liqni saqlash boshqarmasi tomonidan chiqarilgan**

Tekshirish samaradorliklariga erishishni ko'zlagan holda Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazlari (Centers for Disease Control and Prevention, CDC) klinikalarning avval bemorlarni COVID-19 kasalligining simptomlariga (yo'tal, istima, nafas yetishmasligi) nisbatan baholashlarini va eng kuchli darajada kasallangan va murakkablashuvlar bo'yicha eng yuqori xatar ostida bo'lganlarni birinchi bo'lib tekshirishlari kerakligini tavsiya qiladilar.

**Ustuvorliklar quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

- Infeksiyani nazorat qilishga oid qarorlar haqida xabardor qilish maqsadida COVID-19 ga mos keluvchi belgilar va simptomlarga ega bo'lgan kasalxonaga yotqizilgan bemorlar.
- Keska yoshdagilar va ularni yuqoriroq xatar ostiga qo'yishi mumkin bo'lgan surunkali tibbiy holatga va/yoki immuniteti pasaygan holatda bo'lgan shaxslar

COVID-19 bo'yicha tekshirish haqida qarorlar chiqarishga yordam beruvchi boshqa qo'shimcha epidomologik omillar ham mavjud. Yurisdiksiyadagi hujjatlashtirilgan COVID-19 infeksiyalari va hamjamiyat orasidagi ma'lum o'tishlar ham tekshirish qarorlari haqida xabar berish uchun epidomologik xatarni baholashga hissa qo'shishi mumkin. Klinikalarga boshqa turdagi nafas yo'llari kasalliklariga (masalan, gripp) nisbatan tekshirishni o'tkazish qat'iy tavsiya qilinadi.

**Yengil kasallangan bemorlarga uydsa qolish (o'zini-o'zi izolyatsiya qilish) va klinik boshqaruv to'g'risida yo'riqnoma olish uchun davolovchi shifokorlariga murojaat qilish tavsiya qilinishi kerak.** Nafas olishning qiyinligi kabi o'tkir simptomlarga ega bo'lgan bemorlar darhol davolanish uchun murojaat qilishlari kerak. Kexsa bemorlar va ko'rsatib o'tilgan tibbiy holatda bo'lgan yoki immuniteti pasaygan shaxslar hattoki yengil kasallangan hollarida ham kasallik boshlanishi bilan darhol davolovchi shifokorlariga murojaat qilishlari lozim.

Ogayo sog'liqni saqlash boshqarmasi (Ohio Department of Health) hamjamiyatdagi hamkorlar bilan birgalikda COVID-19 bilan og'riqlikda gumon qilingan shaxslar uchun darajaga asoslangan tekshirish strategiyasini ishlab chiqdi:

<b>Tekshirish darajasi</b>	<b>Bayoni</b>
1-daraja	Kasalxonalar va boshqa sog'liqni saqlash muassasalaridagi COVID-19 bor deb faraz qilingan bemorlar, jumladan uzoq vaqt davolanayotgan bemorlar
2-daraja	1-daraja institutlaridagi simptomlarga ega bo'lgan sog'liqni saqlash sohasi xodimlari va jamoatchilik salomatligi sohasidagi kasblarda ishlovchi barcha shaxslar
3-daraja	Yengildan o'rtacha darajagacha bo'lgan simptomlarga ega bo'lgan xatar ostidagi shaxslar – keksalar va jiddiy tibbiy muammolarga ega bo'lgan kishilar
4-daraja	Yengildan o'rtacha darajagacha bo'lgan simptomlarga ega bo'lgan, nojo'ya ta'sirlar xavfi ostida bo'lmagan shaxslar – <b>hozirda tekshirish tavsiya qilinmaydi</b>
5-daraja	Simptomlarga ega bo'lmagan shaxslar – <b>hozirda tekshirish tavsiya qilinmaydi</b>

## Izolyatsiya qilish ehtiyot choralarini davom ettirmaslik uchun mezonlar

CDC [uyda izolyatsiya qilishni davom ettirmaslik](#) uchun tekshirishga asoslanmagan mezonlar va tasdiqlangan yoki gumon qilingan COVID-19 ga ega bo'lgan [sog'liqni saqlash xodimlari uchun ishga qaytish mezonlarini](#) e'lon qildi. Tekshirishga asoslanmagan strategiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Istim tushiruvchi dorilardan foydalanmasdan istimani bartaraf qilish sifatida aniqlangan *tuzalishdan va* nafas olish simptomlarining (masalan, yo'tal, nafas yetishmasligi) yaxshilanishidan boshlab kamida 3 kun (72 soat) o'tdi; **VA**
- *Dastlabki simptomlar paydo bo'lganidan boshlab* kamida 7 kun o'tdi.

Qo'shimcha ma'lumotlar olish uchun quyidagi saytga kiring: <https://healthcollab.org/covid-19/>

-###-

**The Health Collaborative tashkiloti haqida:** The Health Collaborative bu yanada sog'lom kishilar, yaxshoroq davolash va kamroq harajatlarga olib keluvchi ma'lumotlar asosidagi yaxshilanishlarni ilgari suruvchi notijorat tashkilotidir. The Health Collaborative tashkiloti haqida ko'proq ma'lumotlar olish uchun [healthcollab.org](https://healthcollab.org) saytiga tashrif buyuring.

